

**9- va 11-sinf o‘quvchilarining yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari
uchun belgilangan fanlar va imtihonlarni bo‘lib o‘tish
TARTIBI va SANALARI**

9-sinf o‘quvchilari uchun **majburiy** bo‘lgan fanlar:

Ona tili va adabiyot (<i>ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan sinflar uchun</i>)/ Davlat tili (<i>ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan sinflar uchun</i>)	01.06.2026 (<i>yoзма shaklda</i>)
Matematika	04.06.2026 (<i>yoзма shaklda</i>)
O‘zbekiston tarixi	08.06.2026 (<i>yoзма va og'zaki shaklda</i>)
Jismoniy tarbiya	01-06.05.2026 (<i>amaliy shaklda</i>)

11-sinf o‘quvchilari uchun **majburiy** bo‘lgan fanlar:

Ona tili va adabiyot (<i>ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan sinflar uchun</i>)/ Davlat tili (<i>ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan sinflar uchun</i>)	02.06.2026 (<i>yoзма shaklda</i>)
Matematika (<i>Asosiy</i>)/ Matematika (<i>Chuqurlashtirilgan</i>)*	05.06.2026 (<i>yoзма shaklda</i>)
O‘zbekiston tarixi	09.06.2026 (<i>yoзма shaklda</i>)

11-sinf o‘quvchilari uchun **tanlov fanlari:**
(*Barcha 11-sinf bitiruvchilari topshirishi majburiy*)

Ona tili va adabiyoti (<i>Qoraqalpoq va adabiyoti/Rus tili va adabiyoti/Qozoq tili va adabiyoti/Qirg'iz tili va adabiyoti/Tojik tili va adabiyoti/Turkman tili va adabiyoti</i>)	12.06.2026 15.06.2026 (<i>yoзма shaklda</i>)
Fizika	
Kimyo	
Biologiya	
Geografiya	
Davlat huquq asoslari	
Chet tili	(yoзма va og'zaki shaklda)

11-sinf bitiruvchilari **3 ta** majburiy va **2 ta** (*Matematika (Chuqurlashtirilgan)*) variantini tanlagan o'quvchilar uchun **1 ta**) tanlov fanlaridan imtihonlar topshiradi.

* *Matematika fanidan 11-sinf bitiruvchilari berilgan 2 ta variantdan birini tanlashlari mumkin. Bunda:*

Matematika (Asosiy): Umumta'lim dasturidagi asosiy bilim va ko'nikmalar baholanadi.

Matematika (Chuqurlashtirilgan): Umumta'lim dasturidagi chuqurlashtirilgan bilim va ko'nikmalar baholanadi.

11-sinfda o'quvchining ixtiyoriga ko'ra tanlov fanlar yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishidan bir oy oldin uning arizasiga ko'ra tanlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi umumta'lim maktablarida davlat tili imtihoni o'zbek tilida tashkil etiladi. Ta'lim tili qoraqalpoq tilida bo'lgan maktab o'quvchilari davlat tili fanidan imtihonni qoraqalpoq tilida topshirishlari mumkin.

Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, ishchi guruh tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan 2 ta variant tuzilib, e'lon qilinadi.

Qo'shimcha eslatma:

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari o'zining ta'lim yo'nalishi, o'quv jarayonining xususiyatlari hamda ichki tartib-qoidalaridan kelib chiqib, yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon sanalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari uchun imtihon topshirish tartibi va shakllari belgilangan talablarga muvofiq quyidagicha tashkil etiladi:

1. Ona tili va adabiyot fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari ona tili va adabiyot fanlaridan 5–9-sinflar uchun amaldagi o'quv dasturi asosida shakllantirilgan.

Ona tili va adabiyot fanlaridan o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 10 ta variant taqdim etiladi.

Har bir variantning savol va topshiriqlari fan kesimida bo'lib, umumta'lim maktablarining talaffuz va imlo, punktuatsiya, lingvistik tahlil, matnni tushunish, shuningdek, milliy, jahon adabiyoti hamda adabiyot nazariyasi kabi mazmun sohalarni qamrab olgan. Tavsiyada bilish, qo'llash va mulohaza qilish kognitiv faoliyatlarga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 10 ta topshiriqli (6 ta ona tili, 4 ta adabiyot) savol beriladi. Topshiriqlarning 3 tasi (2 ta ona tili, 1 ta adabiyot) bilishga, 5 tasi (3 ta ona tili, 2 ta adabiyot) qo'llashga, 2 tasi (1 ta ona tili va 1 ta adabiyot) mulohazaga oid bo'ladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt ajratiladi.

2. Davlat tili (ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan sinflar uchun)dan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

O'quvchilarning davlat (o'zbek) tili fanini bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 10 ta variant taqdim etiladi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari fan bo'limlari kesimida tuzilib, talaffuz va imlo, punktuatsiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis va matnni tushunish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Shuningdek, topshiriqlar bilim, qo'llash va fikrlash faoliyatiga doir baholash mezonlari asosida ishlab chiqiladi.

Har bir variantda o'quvchiga 5 ta topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqlardan: 2 ta bilishga oid, 2 ta qo'llashga oid, 1 ta mulohazaga oid bo'ladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt ajratiladi.

3. Matematika fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Umumta'lim maktablarning 9-sinf o'quvchilarini matematika fanidan bilim darajasini aniqlash maqsadida yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 ta topshiriq taqdim etiladi.

Har bir variantda o'quvchiga 20 tadan (12 ta algebra, 8 ta geometriya) savol beriladi. Savollarning 5 tasi (3 ta algebra, 2 ta geometriya) bilishga, 12 tasi (7 ta algebra, 5 ta geometriya) qo'llashga, 3 tasi (2 ta algebra, 1 ta geometriya) mulohazaga oid bo'ladi. Variant topshiriqlarini bajarish uchun 180 daqiqa vaqt beriladi.

4. O'zbekiston tarixi fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma va og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari O'zbekiston tarixi fanidan 5-9-sinflar uchun amaldagi o'quv dasturi asosida shakllantirilgan.

O'quvchilar uchun O'zbekiston tarixi fani bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 5 topshiriq taqdim etiladi. Savollarning 2 tasi bilishga, 2 tasi qo'llashga hamda 1 tasi mulohaza qilishga oid. Mulohazaga oid savolga javob og'zaki topshiriladi. Og'zaki imtihon qismida o'quvchi 10 ta variant ichidan bitta mulohazaga oid **topshiriq yozilgan biletni tortib oladi** va shu topshiriq yuzasidan 15—20 daqiqa tayyorlanib, 3 daqiqa davomida javob beradi. O'quvchi bilet savollariga javob berishi uchun jami 180 daqiqa vaqt beriladi.

5. Jismoniy tarbiya fanidan fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025/2026 – o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon amaliy shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon biletining topshiriqlari jismoniy tarbiya fani bo'yicha 5-9-sinflar mavzularini qamrab olgan.

O'quvchilarga taklif etilgan baza savollaridan tashkil topgan 10 ta bilet (5 ta qiz bolalar uchun, 5 ta o'g'il bolalar uchun) taqdim etiladi. Biletga o'quvchiga 3 tadan (1 ta yengil atletika, 1 ta gimnastika va 1 ta sport o'yinlari) amaliy topshiriq beriladi. Bilet topshiriqlarini amaliy bajarib berish vaqti, biletning o'zida ko'rsatilgan. Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, ishchi guruh tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan 2 ta variant tuzilib, e'lon qilinadi.

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilari uchun
imtihon topshirish tartibi va shakllari belgilangan talablarga muvofiq
quyidagicha tashkil etiladi:**

6. Ona tili va adabiyot fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

Ona tili va adabiyot fanlaridan o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 15 ta topshiriq taqdim etiladi.

1-qism: 13 ta qisqa javobli (9 ta ona tili, 4 ta adabiyot) topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta raqam, bosh harf bilan yozilgan javob ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism: Kengaytirilgan javobli 2 ta (1 ta ona tili, 1 ta adabiyot) topshiriqni o'z ichiga oladi, berilgan topshiriqqa asosli dalillar bilan batafsil hamda ijodiy fikr yuritib, yozma javob beradi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari fan kesimida bo'lib, umumta'lim maktablarining talaffuz va imlo, punktuatsiya, uslubiyat, lingvistik tahlil, matni tushunish, shuningdek, milliy, jahon adabiyoti hamda adabiyot nazariyasi kabi mazmun sohalarni qamrab olgan. Tavsiyada bilish, qo'llash va mulohaza qilish kognitiv faoliyatlarga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 15 tadan (10 ta ona tili, 5 ta adabiyot) savol beriladi. Savollarning 3 tasi (2 ta ona tili, 1 ta adabiyot) bilishga, 10 tasi (7 ta ona tili, 3 ta adabiyot) qo'llashga, 2 tasi (1 ta ona tili, 1 ta adabiyot) mulohazaga oid bo'ladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt berilgan.

7. Davlat tili (ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan sinflar uchun) dan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning o'zbek (davlat) tili fanini bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 ta variant taqdim etiladi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari fan bo'limlari kesimida tuzilib, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, uslubiyat va matni tushunish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Shuningdek, topshiriqlar bilim, qo'llash va fikrlash faoliyatiga doir baholash mezonlari asosida ishlab chiqiladi.

Har bir variantda o'quvchiga 20 ta topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqlardan: 5 ta bilishga oid, 14 ta qo'llashga oid, 1 ta mulohazaga oid bo'ladi.

1-qism: 17 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta yoki bir nechta raqam, bosh harf bilan yozilgan javob ko'rinishida berilishi kerak.

2-qism: Kengaytirilgan javobli 3 ta topshiriqni o'z ichiga oladi, berilgan topshiriqqa asosli dalillar bilan batafsil hamda ijodiy fikr yuritib, yozma javob beradi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi test sinovlari uchun **180** daqiqa vaqt ajratiladi.

8. Matematika (Asosiy) fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

O'quvchilari uchun matematika fani bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 topshiriq taqdim etiladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari ona tili va adabiyot fanlaridan 5–11-sinflar uchun amaldagi o'quv dasturi asosida shakllantirilgan.

Har bir variantda o'quvchiga 20 tadan (12 ta algebra, 8 ta geometriya) savol beriladi. Savollarning 5 tasi (3 ta algebra, 2 ta geometriya) bilishga, 13 tasi (8 ta algebra, 5 ta geometriya) qo'llashga, 2 tasi (1 ta algebra, 1 ta geometriya) mulohazaga oid bo'ladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt berilgan.

9. Matematika (Chuqurlashtirilgan) fanidan imtihon o'tkazish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Umumta'lim maktablarning 11-sinf o'quvchilarini matematika fanidan bilim darajasini aniqlash maqsadida yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 25 ta topshiriq taqdim etiladi.

Har bir variantda o'quvchiga 25 tadan (15 ta algebra, 10 ta geometriya) savol beriladi. Savollarning 5 tasi (3 ta algebra, 2 ta geometriya) bilishga, 15 tasi (9 ta algebra, 6 ta geometriya) qo'llashga, 5 tasi (3 ta algebra, 2 ta geometriya) mulohazaga oid bo'ladi. Variant topshiriqlarini bajarish uchun 180 daqiqa vaqt beriladi.

10. O'zbekiston tarixi fanidan yozma imtihonlarni o'tkazilish tartibi.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi. Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari O'zbekiston tarixi fanidan 6–11-sinflar uchun amaldagi o'quv dasturi asosida shakllantirilgan.

O'zbekiston tarixi fani bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 test topshirig'i taqdim etiladi. Savollarning 5 tasi bilishga, 13 tasi qo'llashga, 2 tasi mulohazaga doir. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt berilgan.

11. Tanlov fanlari bo'yicha imtihonlarni o'tkazish tartibi.

Bir sinfda o'quvchilarning ixtiyoridan kelib chiqib bir nechta fan tanlanishi mumkin ammo har bir o'quvchi faqat 2 ta (*Matematika (Chuqurlashtirilgan) variantini tanlagan o'quvchilar uchun 1 ta*) fandan imtihonda ishtirok etadi.

Tanlov fanlaridan imtihonlar joriy yilning **12-iyun** 1-fandan, 15- **iyun** sanasida 2-fandan o'tkaziladi:

Fizika:

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilarini fizika fanidan bilim darajasini aniqlash maqsadida yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 ta topshiriq

taqdim etiladi. Savollarning 5 tasi bilishga, 13 tasi qo'llashga, 2 tasi mulohazaga doir. Variant topshiriqlarini bajarish uchun **180 daqiqa** vaqt beriladi.

Kimyo:

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun kimyo fani bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 topshiriq taqdim etiladi.

Variantda o'quvchiga 20 ta (9 ta umumiy kimyo, 7 ta organik kimyo, 3 ta anorganik kimyo va 1 ta laboratoriya mashg'ulotlari) savol beriladi. Savollarning 5 tasi bilishga, 12 tasi qo'llashga, 3 tasi mulohazaga oid bo'ladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt berilgan.

Biologiya:

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilarini biologiya bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini aniqlash maqsadida yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 ta topshiriq taqdim etiladi.

Variantda o'quvchiga 20 ta (2 ta tirik tizimlar va ularni o'rganish, 3 ta hujayra biologik tizim, 3 ta organizm biologik tizim, 3 ta organik olam tizimlari va xilma-xilligi, 3 ta inson va uning salomatligi, 3 ta tirik tabiat evolyutsiyasi (yerda hayotning rivojlanishi) va 3 ta ekosistemalar va ularga xos qonuniyatlar) savol beriladi. Savollarning 5 tasi bilishga, 12 tasi qo'llashga, 3 tasi mulohazaga oid bo'ladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt berilgan.

Geografiya:

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

O'quvchilari uchun geografiya fani bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 test topshirig'i taqdim etiladi.

Variantda o'quvchiga 20 ta (3 ta geografiyaning boshlang'ich kursi, 3 ta materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, 3 ta O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi, 3 ta O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, 5 ta jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi va 3 ta geografik masalalar va topshiriqlar) savol beriladi. Savollarning 5 tasi bilishga, 12 tasi qo'llashga, 3 tasi mulohazaga oid bo'ladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt berilgan.

Davlat huquq asoslari:

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida 11-sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari davlat va huquq asoslari fani bo'yicha umumiy o'rta ta'limning 8-11-sinflar mavzularini qamrab olgan.

O'quvchilari uchun davlat va huquq asoslari fani bilish darajasini aniqlash bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 ta topshiriq taqdim etiladi.

Variant 20 ta topshiriqdan iborat bo'lib, ularning 5 tasi bilish, 14 tasi qo'llash, 1 tasi mulohaza ko'nikmalarini baholaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun 180 daqiqa vaqt berilgan.

Chet tili (ingliz, fransuz, nemis)fanidan imtihon o'tkazilish tartibi:

Umumta'lim maktablarning 11-sinf o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2025-2026-o'quv yilida uchun chet tili fanidan yakuniy nazorat imtihoni tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish, nutq ko'nikmasini aniqlash yuzasidan o'tkaziladi.

Xorijiy til fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami **32 ta topshiriq** taqdim etiladi. Topshiriqlar tinglab tushunish, o'qib tushunish, til shakllari (grammatika va leksika), yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini qamrab oladi.

Imtihon ikki qismdan iborat:

- **Yozma qism** — tinglab tushunish, o'qib tushunish, til shakllari va yozma nutq bo'limlarini o'z ichiga olib, **90 daqiqa** davomida o'tkaziladi.
- **Og'zaki qism** — alohida o'tkaziladi va **10 daqiqa** faol nutqni o'z ichiga oladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun jami **100 daqiqa** vaqt ajratiladi.